

МЕХНАТ ФАОЛИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

*Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Tarix fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti**Erejepova Sayora Tileumuratovna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ja'miyatimizdagi mehnat faoliyati, xotin-qizlar bandligi, ularning ish bilan taminlanishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xotin-qizlarning bandligi yoki ish bilan taminlanishining ahamiyatga ega ekanligi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: mehnat faoliyati, bandlik, jarayon.

Mehnat qilish qadimdan inson uchun odiy holga aylanib qolgan. Mehnat qilish orqali jamiyatda o'z orniga ega boladi va shu orqali darajasi yuqorilay beradi. Shunday ekan mehnat insonni rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi, insonni yetildiradi, uni sabrli bo'lishiga yordam beradi. Bugungi kunda ja'miyatimizda mehnatga munosabat sezilarli darajada o'zgargan. Sababi ja'miyatda mehnatga bo'lgan talab yana ham ortib bormoqda. Zamon va davr rivojlanishi bilan mehnatning tu'rlari o'zgaryabdi. Chunki odamlar rivojlangani sari yangi bilimlar, yangi tajribalar ham shakllanib bora beradi. Ja'miyat ham shu tarzda o'zining rivojlanishining yangi bosqishlarini kashf eta beradi. Mehnat asosan insonning o'zining qandayda bir ehtiyojini qondirish uchun shakllanadi. Insonning hayotda yashab ketishi uchun harakat qilishi, tirik qolish uchun kurashishi ham ehtiyojlik asosidir. "Inson ehtiyojlarining ko'pgina tasniflari mavjud bo'lib, ular uchun asos sifatida bu ehtiyojlarning o'ziga hos obekti, ularning funktional vazifasi, amalga oshiriladigan faoliyat tu'ri va hakozalar namoyon bo'ladi".¹ Shunday qilib ehtiyojlar yordamida maqsadlar ham shakllanadi. Maqsad insonning yashasha me'zonining negizidir. Shu bilan birga maqsad mehnat faoliyatining yuqorilashiga olib keladi. Sababi inson yaxshi yerda ishlab, pul topsam deydi. Mehnat qilib maqsadlarimga erishsam deb niyat qiladi va tinmay mehnat qiladi. Shu bilan birga ja'miyatimizda erkak kishilarga nisbatan xotin-qizlar ham mehnat bozorida o'z faoliyatlarini amalga oshirishadi.

"Ijtimoiyi-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natiyjasida iste'mol

¹ Mehnat sotsiologiyasi. N.T. Shoyusupova. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashryoti, Toshkent 2004 13-bet

bahosi, moddiy va ma'naviy manfaat paydo bo'ladi. Olimlarning fikricha, bu shunday jarayonki, unda inson o'z hususiy faoliyati bilan tabiat ba o'zi o'rtasidagi modda almashuvini vositalaydi, boshqaradi va nazorat qiladi. Mehnat, asosan, inson faoliyatining shakli, turmushining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi".²

Chindan ham mehnat inson hayotining katti qismini egallaydi. Sababi yuqorida takidlaganimizdek inson mehnat qilmasa, harakat qilmasa bu hayotda yashamagandek umr kechiradi. Mehnat qilar ekan moddiy va ma'naviy jihatdan ham boyib bora beradi. Mehnat faoliyatida erkaklar va xotin-qizlar tengdek huquqga ega. Ya'ni ikki jins vakillari ham qanday ishda ishlashidan qattiy nazar har ikkalasining huquqlari himoyalangan. Bir-birini kamsitishi yoki yerga urishi ularning mehnat faoliyatidagi huquqlarini buzadi. Lekin hozirgi davrda xotin-qizlarning ish bilan taminlanishiga, erkaklar bilan teng ish faoliyatini amalga oshirishiga qarshi insonlar ham bor. Lekin xotin-qizlarning ish bilan taminlanishi muhim. Chunki ular keljak tarbiyalovchilaridir. Ular jamiyatga kerak va foydali zuryodni tarbiyalaydi. Bilimli onadan, bilimli farzand bo'ladi. Shuning uchun xotin-qizlar bilim olishi shart. Bilim olib mutaxasisi bo'lib yetishib shiqsa ham jamiyatga foyda olib keladi. Lekin tanganing ikki tarafi bo'lgandek xotin-qizlarning bilim olishiga, ishlashiga qarshilik ko'rsatadigan taraflar ham yoq emas. Lekin hozir hamma narsaning imkonи bor. Yurtimizda hech kim e'tibordan chetta qolmaydi. Ayniqsa xotin-qizlarga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Ja'miyatimizda xotin-qizlarning orni alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizning qariyb yarimiga tengi xotin-qizlarni tashkil etkan bo'lsa bu ko'rsatkish mehnat faoliyatida ham sustroq harakat qiladi. Lekin keyingi yillari xotin-qizlar mehnat bazorida ancha harakatka keldi. Bu yurtimizda xotin-qizlarga qaratilgan e'tibor va g'amxorlikning belgisidir. Bu ham ayollarga berilgan imkoniyatdir. Ayollar daftaridagi xotin-qizlarning mehnat sharoyitini inobatga olib ularni ish bilan taminlash yoki yengillashtirilgan kreditlar berib tadbirdorlikka jalb etib o'z mehnat faoliyatini boshlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda xotin-qizlar bandligi ja'miyatimiz tarafidan taminlangan. Ularning huquq va erkinliklari qanun doirasida himoyalanib kelmoqda. Ularning band bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar qo'llanilib kelmoqda. Bu ham jamiyatda xotin-qizlar darajasining ancha o'sishiga olib keladi. Shuning uchun ham keyingi yillari bu ko'rsatkish yaxshi natijyaga ko'tarilmoqda. Xotin-qizlar mehnatidan ham samarali ravishda foydalanib kelmoqda. Deyarli har bir sohada xotin-qizlarni ushratsak bo'ladi. Sababi ular har bir ishni mehr va ma'sulyat bilan ishlaydilar. Shunday qilib ja'miyatda xotin-qizlarning bandligi

² M.B.Bekmurodov,O.B.Ota-Mirzaev. R.A.Ubaydulaeva. N.S.Aliqoriev. A.Begmatov.

U.K.Qayumov.M.X.G'anieva.M.Qirg'izboev.X.Axmedova.B.Farfiev. A.Xolbekov. "Sotsiologiya" Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashiryoti Toshkent-2002 144-bet

ahamiyatga ega ekan. Sababi oilada ham ayollar e'zozlangani kabi ja'miyatda ham shunday. Ularning har bir sohadagi faoliyati va harakati o'zgachadir. Xotin-qizlarni hurmat qilgan, e'zozlagan ja'miyat yuksaklik sari intila beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehnat sotsiologiyasi. N.T. Shoyusupova. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashryoti, Toshkent 2004 13-bet
2. M.B.Bekmurodov,O.B.Ota-Mirzaev. R.A.Ubaydulaeva. N.S.Aliqoriev. A.Begmatov.U.K.Qayumov. M.X.G'anieva. M.Qirg'izboev. X.Axmedova. B.Farfiev. A.Xolbekov. "Sotsiologiya" Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashiryoti Toshkent-2002 144-bet